rensiyasi va grammatik moslashuv natijasida *"post qildi"*, *"storiga qo'ydim"*, *"reels tashladim"* kabi konstruksiyalar tezkor va kontekstga mos muloqotni ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu kabi birliklar ham ingliz va o'zbek tillari integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan va inson bir vaqtning o'zida bir nechta tildan foydalanishni bugungi kungi muloqot uchun tabiiy holatdir. Ammo bu yunalishda yuzaga kelayotgan muammolardan biri o'zbek tilining davlat tili sifatida sofligi va etnomadaniy identikligini saqlab qolishga urinish bo'lsa, boshqa tomondan yoshlar bosh muallif tarzida namoyon bo'layotgan jargon gibridizatsiyasining obyektiv jarayonidir.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, raqamli kommunikatsiya evolutsiyasi va translingval diskurs bir-birini to'ldiruvchi hodisalardir. Ular raqamli platformalarda yoshlar tilining funksional rivojlanishi hamda yangi gibrid til birliklarining shakllanishini aks ettiradi. Mazkur tadqiqotda gibrid kommunikativ model raqamli kommunikatsiya va translingval birliklarni tahlil qilishning konseptual asosi sifatida qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abbate J. Inventing the Internet. Cambridge, MA: MIT Press, 1999, 264 p.

(2). Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Blackwell Publishing, 2010, 597 p.

(3). Cooley Ch. H. Social Organization: A Study of the Larger Mind. New York, Charles Scribner's Sons, 1909, 426 p.

(4). García O., Wei L. Translanguaging: Language, Bilingualism and Education. London, Palgrave Macmillan, 2014, 165 p.

(5). Hafner K., Lyon M. Where Wizards Stay Up Late. The Origins of the Internet. New York, Simon & Schuster, 1996, 304 p.

(6). Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. New York, New York University Press, 2006, 308 p.

(7). Markoff J. Entrepreneurs See a Web Guided by Common Sense. The New York Times. 2006, November 12, p. 1–3.

(8). O'Reilly T. What Is Web 2.0: Design Patterns and Business Models for the Next Generation of Software. O'Reilly Media. 2005, p. 17–37.

(9). Schmandt-Besserat D. How Writing Came About. Austin: University of Texas Press, 1996, 240 p.

(10). Van Dijk J. The Network Society. 3rd ed. London, Sage Publications, 2012, 320 p.

(11). Wei L. Translanguaging as a Practical Theory of Language. Applied Linguistics. 2018 vol. 39, № 1, p. 9–30.

(12). Дўстмуҳаммад Х.М. Замонавий журналистика ва ахборот макони. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2021, 224 бет.

(13). Маҳмудов Н. Тил ва мулоқот. Тошкент, "Маънавият", 2013, 224 бет.

(14). Қудратхўжаев Ш.С. Оммавий коммуникация назарияси. Тошкент, "Ўзбекистон", 2019, 256 бет.

(15). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Тошкент, "Akademnashr", 2006, 276 бет.

Qulto'rayeva Sarvinoz Bahodir qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti; qulturayevasarvinas@gmail.com)

TOPONIMLARDA XALQNING ETNIK TARIXI VA ETNOMADANIY XOTIRASI

Annotatsiya. *Toponimik tizimda xalqning tarixiy-etnik jarayonlari va ma'naviy dunyoqarashi o'zaro sintezlashgan holda yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Makon nomlarining lisoniy xususiyatlarini tahlil qilish orqali etnosning shakllanish bosqichlarini, diniy-mifologik tasavvurlarini hamda xo'jalik yuritish madaniyatini aniq aniqlash mumkin. Ushbu maqolada shu haqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *toponimik tizim, tarixiy-etnik jarayonlar, makon nomlari, etnos shakllanishi, diniy-mifologik tasavvurlar;*

ЭТНИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ И ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ ПАМЯТЬ НАРОДА В ТОПОНИМАХ

Аннотация. *Топонимическая система представляет собой целостную систему, в которой историко-этнические процессы и духовное мировоззрение народа синтезированы и взаимосвязаны. Посредством анализа лингвистических особенностей названий географических объектов можно точно определить этапы формирования этноса, его религиозно-мифологические представления, а также особенности хозяйственной культуры. В данной статье рассматриваются эти вопросы.*

Ключевые слова: *топонимическая система, историко-этнические процессы, названия географических объектов, формирование этноса, религиозно-мифологические представления.*

THE ETHNIC HISTORY AND ETHNOCULTURAL MEMORY OF THE PEOPLE IN TOPONYMS

Annotation. *In the toponymic system, the historical and ethnic processes of a people and their spiritual worldview are synthesized with one another, forming an integrated system. By analyzing the linguistic features of place names, it is possible to identify the stages of ethnos formation, religious and mythological beliefs, as well as the culture of economic activity. This article discusses these aspects in detail.*

Keywords: *toponymic system, historical and ethnic processes, place names, ethnos formation, religious and mythological beliefs.*

Kirish. Toponimlarda xalqning etnik tarixi, birinchi navbatda, uning dinamik va turg‘un qatlamlarida namoyon bo‘ladi. Etnos shakllanish va hududiy o‘zlashtirish bosqichlarida o‘z tarkibidagi urug‘, qabila va tarmoqlarning nomlarini geografik obyektlarga muhrlab qoldiradi. Bu jarayon toponimik xotira tizimida faqatgina o‘tmish faktini qayd etishni emas, balki millatning shakllanish xaritasi va etnomadaniy identifykatsiyasini lisoniy ongda qayta tiklab turuvchi tirik manba vazifasini bajarishni ko‘zda tutadi.

Muayyan hududda asrlar davomida yashab kelgan xalqning etnogenezi, qabilaviy tarkibi, migratsion harakatlari va boshqa etnoslar bilan bo‘lgan lisoniy-madaniy aloqalarini o‘zida turg‘un saqlagan o‘ziga xos onomastik arxivlardan biri sifatida toponimik xotirani ko‘rsatish mumkin. U makonni nomlash jarayonida etnik jamoaning tarixiy kechmishi va subetnik bo‘linishlarini lisoniy qoliplarga ko‘chirish hamda ushbu kodlarni avlodlararo intellektual ko‘prik sifatida saqlash mexanizmi hisoblanadi. Toponimik xotiraning tarixiy-falsafiy genezisi antik tafakkurda nom va mohiyat munosabati muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, Aflotunning ism (nom)ning “tabiiy” yoki “kelishilgan”ligi haqida bahs yuritiladi [1]. Bu yondashuv shuni anglatadiki, nomlash harakati tasodifiy belgilar yig‘indisi emas, balki dunyoni tartiblash va bilishning muhim usulidir. Shu ma’noda, joy nomlari ham makonni ijtimoiy ongda saqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadimgi yunon va rim manbalarida etnonim va toponimlarning bir-biriga o‘tishi juda keng ko‘lamda uchraydi. Manbalarda qayd etilishicha, jumladan, Strabon “Geografiya” asarida o‘nlab qabila nomlari bilan joy nomlarini birgalikda qayd etadi [2]. Antik merosning keyingi bosqichi Arastuning “Poetika” va “Ritorika”sida nomlashning tasniflovchi vazifalari bilan boyitiladi.

O‘rta asr turkiy yozma an’anasida M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari toponim va etnonim aloqalarini tahlil qilish uchun beqiyos manba hisoblanadi. Olim qabila nomlarini til faktlari bilan bog‘lab, joy nomlari va etnik birliklarning tarqalishini lingvistik dalil orqali ko‘rsatadi. Bu esa etnomadaniy xotiraning “til xaritasi”ni yuzaga chiqaradi. Jumladan, M.Koshg‘ariy turkiy qabilalar yashash hududlari, yaylov-qishlov yo‘llari, daryo va tog‘ nomlari bilan birga tilning dialekt farqlari keltiriladi.

XVII–XIX asrlarda yuzaga kelgan tarixiy-filologik yondashuv hamda millat konsepsiyasining yuksalishi toponimlarni xalqning etnik tarixi va etnomadaniy xotirasini muhrlagan eng ishonchli lisoniy “hujjat” sifatida ilmiy muomalaga olib kirdi. Ayniqsa, XIX asr Yevropa onomastikasida yuzlab regional lug‘atlarning tuzilishi va ularda minglab joy nomlari etimologiyasining tadqiq etilishi sohaning mustaqil fan sifatida institutlashganidan dalolat beradi.

Bu davrda rivojlangan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik doirasida toponimlarning xalq etnik o‘tmishi va madaniy qatlamlarini tiklashdagi o‘rni fonetik moslik, morfologik qayta ishlash va semantik motivatsiya mezonlari orqali fundamental asoslandi. Qiyosiy-tarixiy metod yordamida yaratilgan etimologik lug‘atlar toponimik xotirani tizimli tahlil qilish imkonini yaratdi. Xususan, M.Vasmer [3] sharqiy slavyan va unga tutash hududlardagi areal toponimik qatlamlarni aniq statistik ko‘rsatkichlar bilan tahlil qilib, til egalarining etnik migratsiyasi hamda qadimiy etnomadaniy aloqalarini xaritlashtirish mumkinligini amalda isbotladi.

M.Xolbvaxsning “Jamoaviy xotira” [4] konsepsiyasi toponimlarda etnomadaniy xotirani tushuntirishda tayanch nuqtalardan biridir. Unga ko‘ra, ko‘chish, suv taqchilligi, urush yoki ma’muriy qayta taqsimot kabi hodisalar natijasida eski nomlar yangi joyga ko‘chib o‘tishi yoki aksincha, yangi nomlar eski joyga yopishishi mumkin. Bu hodisa “toponimik migratsiya” sifatida izohlanadi.

Pierre Nora [5] toponimni ramziy markaz sifatida tahlil qiladi. Olim modernizatsiya va urbanizatsiya jarayonida *jonli xotira* zaiflashganda, jamiyat xotirani belgilarga, marosimlarga va nomlarga “tashqi” tarzda joylaydi. Qayd etish joizki, toponimlar ana shunday tashqi xotira konteyneridir. Masalan, tarixiy shaxs, voqea yoki qabila nomi bilan atalgan ko‘cha, qishloq, tepa nomlari vaqt o‘tishi bilan xotira mazmunini yo‘qotishi mumkin, biroq nomning mavjudligi o‘zi xotirani qayta faollashtirish imkonini saqlab qoladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda toponimlarni etnomadaniy xotira sifatida o‘rganish “tanqidiy toponimiya” va “lingvistik landshaft” paradigmalarida kengaymoqda. Tanqidiy toponimiya joy nomlarini hokimiyat, ideologiya va xotira siyosati bilan bog‘liq diskurs sifa-

tida koʻradi. Lingvistik landshaft esa yozuvlar, belgilar va xaritalardagi til koʻrinishlarini ijtimoiy identitet indikatoriga aylantiradi. Bugungi kunda turli institutlarning nomlashda standartlashtirish, transliteratsiya, brending va turistik markirovka jarayonlari toponimning etnik xotira qatlamiga taʼsir koʻrsatadi. Misol sifatida, ayrim hududlarda tarixiy nomning tiklanishi etnik-madaniy merosni kuchaytirsa, boshqa holatda "yangi" nomlar iqtisodiy investitsiya yoki ideologik ramz sifatida tanlanadi. Natijada eski nomlar ogʻzaki muhitda yashirin yashashda davom etadi.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda makon nomlari nafaqat geografik koordinata, balki millatning tarixiy va madaniy kodlarini oʻzida muhrlagan lisoniy belgilar tizimi sifatida baholanadi. Chunki etnos oʻzi yashagan hududdagi obyektlarni nomlar ekan, unga oʻz dunyoqarashi, oʻzligi va mifopoetik tafakkuridan kelib chiqib yondashadi. Natijada toponimlar toʻplami muayyan xalqning etnomadaniy xotira omboriga aylanadi. V.Nikolaysen Shotlandiya joy nomlarini tadqiq etar ekan, toponimlarni jamiyatning oʻtmishdagi intellektual va ijtimoiy faoliyatining lisoniy xaritasi sifatida baholab: "Toponimlar – xalqning oʻz oʻtmishini til yordamida qayta tiklash va makonni oʻzlashtirish borasidagi eng barqaror xotira vositasidir"[6], – deya izohlaydi. V.Nikolaysenning fikriga qoʻshilgan holda aytish mumkinki, toponimlar etnosning oʻzlikni anglash ehtiyojidan kelib chiqadi. Joy nomlari til tizimida jamiyatning tarixiy-madaniy evolyutsiyasiga hamohang ravishda qayta maʼno kasb etuvchi lisoniy fenomen hisoblanadi. Etnos oʻzining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy taraqqiyoti davomida oʻzi yashayotgan makon nomlarini doimiy ravishda oʻzining yangi qadriyatlar tizimi prizmasidan oʻtkazib, qayta anglaydi va lisoniy faoliyatida faollashtiradi. Toponimik xotiraning bunday tabiati joy nomlarining mental makonda qayta shakllanish mexanizmini belgilaydi. M.V. Golomidova toponimik nominatsiyaning kognitiv va dinamik tabiatini asoslab, joy nomlari inson tomonidan makonni oʻzlashtirish va uni madaniy-ijtimoiy jihatdan kodlashtirish jarayonida nafaqat yorliq vazifasini bajaradi, balki subyektning kognitiv faoliyati natijasida doimiy ravishda yangi semantik va interpretatsion maʼnolar bilan boyib boruvchi mental tuzilmadir sifatida baholaydi [7]. Demak, har bir tarixiy davrda til egalari toponimlarni oʻzlarining dolzarb etnomadaniy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ongli ravishda qayta kodlaydilar.

Maʼlum bir hududda aholining uzoq vaqt davomida yashashi va xoʻjalik yuritishi natijasida oʻziga xos joy nomlari tizimi shakllanadi. Geografik nomlar, qayd etib oʻtilganidek, oʻzi paydo boʻlgan davrning ijtimoiy hayoti, til xususiyatlari va tarixiy voqealari haqida aniq maʼlumot beruvchi jonli manba hisoblanadi. Shu bois ham onomastika ilmida etnosning oʻtmishi va madaniyatini oʻrganishda toponimlarga birlamchi tarixiy hujjat sifatida qaraladi. Bu borada professor S.Qorayevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jamiyat tarixida boʻlib oʻtgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan" [8]. Olim tomonidan ilgari surilgan bu qarashlar joy nomlarining mohiyatini toʻgʻri anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki toponimlar xalqning asrlar davomida bosib oʻtgan hayot yoʻli, tarixiy xotirasi va maʼnaviy dunyosining tildagi ifodasidir. S. Qorayev koʻrsatib oʻtgan toʻrtta muhim jihatni quyidagicha izohlash mumkin:

- **Toponimlarda etnomadaniy xotira va etnik tarix namoyon boʻlishining asosiy omillari.**
- **Ilmiy ahamiyat.** Joy nomlari yozma manbalarda saqlanmagan qadimgi urugʻ-qabilalar va til xususiyatlarini aniqlovchi birlamchi manbadir.
- **Siyosiy ahamiyat.** Toponimlar etnosning muayyan geografik makonda asrlar davomida yashab kelayotganini va u yerga boʻlgan tarixiy huquqini lisoniy jihatdan isbotlaydi.
- **Amaliy ahamiyat.** Geografik nomlar xalqning atrof-muhit, suv va yer bilan bogʻliq kundalik xoʻjalik hamda iqtisodiy munosabatlarini aks ettiradi.
- **Tarbiyaviy ahamiyat.** Joy nomlaridagi afsona va tarixiy voqealar avlodlarda ajdodlar merosiga nisbatan faxr va hurmat tuygʻusini shakllantiradi.

Shoʻrchi tumani toponimiyasi misolida olinadigan boʻlsak, hududdagi mahalla va qishloq nomlari olim aytgan tarixiy va ilmiy ahamiyatni yaqqol koʻrsatib beradi. Masalan, tumandagi *Baxshitepa* qishlogʻi nomining lisoniy tadriji qadimgi sanskrit tilidagi diniy tushunchalardan tortib, keyingi davrlardagi kotiblik, maʼmuriy amaldorlik hamda hozirgi tilimizdagi badihagoʻylik va shamanlik kabi xilma-xil maʼnaviy-madaniy qatlamlarni oʻzida jamlagan. Shuningdek, forscha asosga ega boʻlgan *Obishir* nomi suvining tarkibi va sifatiga koʻra *sut suv* yoki *sutli buloq* maʼnosini anglatib, mahalliy aholining tabiat obyektlariga bergan amaliy va baholovchi xususiyatini ifodalaydi. Tumandagi *Oqtumshuq* toponimi esa hududning oʻziga xos geografik tuzilishini, yaʼni, yirik va baland doʻnglikning qirrali tomonini anglatib, xalqning makonni nomlashdagi aniq mantiqiy va tabiiy mezonlarini koʻrsatadi. Bundan koʻrinadiki, joy nomlarining ilmiy va amaliy tomoni til tarixini, xalqning qadimgi urugʻ-qabilaviy tarkibini va koʻchib yurish yoʻnalishlarini aniqlashda yordam bersa, ularning tarbiyaviy jihati ajdodlardan qolgan moddiy va maʼnaviy merosni asrab-avay-

lashga, yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Binobarin, jamiyat hayotidagi har bir muhim burilish va tarixiy voqea joy nomlari asosida o‘rganilsa, xalq etnik tarixining bizgacha yetib kelmagan ko‘plab sahifalarini aniq lisoniy dalillar yordamida qayta tiklash imkoniyati tug‘iladi.

Xalqning etnomadaniy xotirasida chuqur iz qoldirgan avliyolar, qadamjolar hamda mifologik tushunchalar joy nomlarida muhrlanadi. Xususan, tadqiqotmiz obyekti hisoblangan Sho‘rchi tumani toponimik manzarasida uchraydigan *Sovjironbobo* ziyoratgohi turg‘un xalq e’tiqodi va avliyolarga bo‘lgan hurmatning lisoniy in’ikosidir. Tumanidagi *Moylixona* qishlog‘i nomining tarkibiy asosini tashkil etuvchi *moyli/boyli* komponenti etnik jihatdan quyi Qashqadaryo mang‘itlari va Qashqadaryoning o‘rta oqimi (Qamashi) saroylari tarkibidagi boyli urug‘i nomi bilan bevosita bog‘lanadi. Nominatsion tamoyilga ko‘ra, mazkur etnotoponim aynan boyli urug‘i vakillari muqim yashaydigan, ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllantirilgan ovulni, ularning etnik makonini anglatuvchi lisoniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi [9]. Bunday etnotoponimik qatlamlarning shakllanish qonuniyatlari umumfilologik planda antik va mifopoetik qatlamlarga borib taqaluvchi *Tamshush* singari toponimlar bilan uzviy aloqadorlikka ega. Zero, Moylixona singari etnotoponimlar jamiyatning keyingi ijtimoiy-tarixiy, urug‘-qabilaviy bo‘linish bosqichlari hamda hududiy o‘zlashtirish jarayonlarini muhrlagan bo‘lsa, Tamshush tipidagi toponimlar xalqning qadimgi ma’naviy olami, diniy tasavvurlari va muqaddaslik haqidagi mifologek qarashlari natijasida yuzaga kelgan onomastik birliklardir. Toponimik tizimdagi bunday dixotomiya, ya’ni, bir tomondan ibtidoiy mifologik tafakkur mevasi bo‘lgan qadimgi onomastik birliklar, ikkinchi tomondan esa aniq tarixiy-etnik jarayonlarni aks ettiruvchi urug‘-aymoq nomlari o‘zaro sintezlashgan holda, muayyan makonning yaxlit etnik manzarasini, xalqning ibtidoiy e’tiqodidan tortib keyingi ijtimoiy transformatsiyalarigacha bo‘lgan rivojlanish tarixini til faktlari vositasida namoyish etadi.

Xalq ma’lum bir joyni uning relyefi, iqlimi yoki tabiati asosida nomlar ekan, o‘z tilining ichki metaforik imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Obyektning geografik shaklini an’anaviy dunyoqarash prizmasida ma’lum bir belgilarga o‘xshatish, masalan, relyef tuzilishini vizual jonlantirish asosida yuzaga kelgan *Oqtumshuq* oykonomi yoki fauna olami orqali makonni simvollashtiruvchi *Laylakxona* mikrotomonimi Sho‘rchi tumani aholisi tafakkurning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, obyektning tabiiy xususiyatiga emotsional-akustik baho berish natijasida shakllangan, tabiat hodisalarini lisoniy ongga ko‘chirgan *Shaldiroq* singari gidrotoponimik xarakterdagi nomlar ham etnosning atrof-muhitni lisoniy obrazlar vositasida his etish qobiliyatini to‘liq namoyon etadi. Ko‘rinadiki, hududiy onomastik birliklar avloddan avlodga o‘tish xususiyatiga ega bo‘lib, o‘tmish dunyoqarash va hududiy til tabiatini saqlovchi turg‘un lingvomadaniy tizim vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, “Geografik nomlar ma’lum tarixiy davrlarda paydo bo‘lgan. Ular tarixiy voqealarning xronologik dalilidir” [10]. Har bir tarixiy bosqich o‘zining nominatsion qonuniyatlari, xo‘jalik yuritish usullari va til xususiyatlari bilan toponimik tizimda yangi qatlamlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda eskirgan yoki iste’moldan chiqqan nomlar ham butunlay yo‘qolib ketmay, balki tarixiy toponimik asos sifatida saqlanib qoladi. Hududdagi qadimiy qal’alar, tepaliklar yoki sug‘orish tizimlari bilan bog‘liq joy nomlari xalqning asrlar davomida ijtimoiy va moddiy faoliyati qay darajada rivojlanganini ko‘rsatuvchi jonli guvohdir. Mazkur geografik nomlarning xronologik ketma-ketligini lingvistik va tarixiy jihatdan tahlil qilish orqali ma’lum bir davrda vohada qaysi etnik guruhlar yetakchilik qilganini, ularning migratsiya yo‘nalishlarini hamda madaniy transformatsiyasini aniqlash mumkin. Shu bois toponimlarning paydo bo‘lish davrini to‘g‘ri belgilash, nafaqat til tarixini, balki har bir hududning umumiy etnik va ijtimoiy yilnomasini qayta tiklashda birlamchi xronologik dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Plato’s. Cratylus. USA: Printed in the United Kingdom at the University Press, Cambridge, 2003, 194 p.

(2). Strabonis. Geographica. Volumen tertium. Lipsiae, 1904, 485 p.

(3). Vasmer M. Russisches etymologisches Wörterbuch. In 3 Bänden. Heidelberg: Carl Winter Universitätsverlag, 1953, 1088 s.

(4). Halbwachs M. La mémoire collective. Préface de Jean Duvignaud; Introduction de J. Michel Alexandre. – 2e éd. revue et augmentée. Paris: Presses Universitaires de France, 1968, 204 p.

(5). P.Les Lieux de mémoire. T. 1, La République. Paris: Gallimard, 1984, 674 p.

(6). Nicolaisen W. Scottish Place – Names, Their Study and Significance. London, Batsford Ltd, 1976, 210 p.

(7). Голомидова М.В. Искусственная номинация в русской ономастике. Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург, 1998, с. 140–176.

(8). Кораев С. Узбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005, 4-бет.

(9). Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008, 57-бет.

(10). Аюбов А.Р. Топонимы как ценное наследие культуры. Номаи донишгоњ учёные записки. Scientific notes, № 4(57), 2018, с. 53.

Jumaniyazova Dildora Xudoyorovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; dildora030894 @ gmail.com)

QO‘ZI DAVLATNING NAZMDA TROPLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya. *Maqolada Qo‘zi Davlatning “Ko‘ngil chiroyi” to‘plamidagi g‘azallar misolida shoirning nazmda troplar – metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanish mahorati lingvopoetik va semantik-funksional jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, muallifning individual uslubiga xos bo‘lgan ma’no ko‘chishlarining badiiy-estetik ta’sirchanligi hamda emotsional-konnotativ vazifalari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *troplar, metafora, metonimiya, sinekdoxa, lingvopoetika, g‘azal, individual uslub, ma’no ko‘chishi, estetik vazifa.*

МАСТЕРСТВО КОЗИ ДАВЛАТА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТРОПОВ В ПОЭЗИИ

Аннотация. *В статье с лингвопоэтической и семантико-функциональной точек зрения проанализировано мастерство использования тропов – метафоры, метонимии и синекдохи в поэзии Кози Давлата на примере его сборника «Конгил чиройи». Также раскрыты художественно-эстетическая выразительность и эмоционально-коннотативные функции переносных значений, характерные для индивидуального стиля автора.*

Ключевые слова: *тропы, метафора, метонимия, синекдоха, лингвопоэтика, газель, индивидуальный стиль, перенос значения, эстетическая функция.*

KOZI DAVLAT’S MASTERY OF USING TROPES IN POETRY

Annotation. *The article analyzes the skill of using tropes – metaphor, metonymy, and synecdoche – in Qozi Davlat's poetry from a linguapoetic and semantic-functional perspective, based on his poetry collection "Kongil chiroyi". The artistic-aesthetic impact and emotional-connotative functions of figurative expressions specific to the author's individual style are highlighted.*

Keywords: *tropes, metaphor, metonymy, synecdoche, linguapoetics, ghazal, individual style, figurative meaning, aesthetic function.*

Kirish. Badiiy matnning estetik qimmatini, ifodalilik va ekspressivligini oshirishda mazmuniy ko‘chimlar – troplar tizimi yetakchi o‘rin tutadi. Troplar semantik tabiatiga ko‘ra, miqdoriy (*giperbola, meyozis*) hamda sifatiy (*metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya*) ko‘chishga asoslangan turlarga ajratiladi [15; 29–30-b.]. Qadimgi grek, hind va rim ritorikasida asoslangan ushbu tasviriy vositalar, dastlab, morfologik hodisa (figuralar esa sintaktik hodisa) sifatida farqlangan bo‘lsa [2;178-b.], keyinchalik rus va Yevropa tilshunosligida (A.A.Potebnya, A.N.Veselovskiy, J.Maruzo, S.Ulman, L.A.Bulaxovskiy) hosila ma’no hosil bo‘lish mezonlari asosida turlicha tasniflangan [4;5;8;12;14]. O‘zbek tilshunosligida R.Qo‘ng‘irov troplarni paradigmatik, uslubiy figuralarni esa sintagmatik hodisalar sifatida tizimlashtirgan [6;81-b.].

Badiiy nutqda eng faol qo‘llanuvchi trop turi *metafora* (mumtoz poetikada *istiora*) yashirin o‘xshatish va aloqadorlikka tayanadi [3;11-b.]. Aristoteldan boshlangan ushbu tadqiq yo‘nalishi uzoq davom etgan sof ritorik va stilistik chegara qolipidan chiqib [1;3-b.], bugungi kunda lingvistik va xususiy-muallif metaforalari hamda ularning mazmuniy ko‘rinishlari (*oddiy, personifikatsiya, sinesteziya*) kesimida o‘rganilmoqda [9;10-b.]. Shuningdek, aloqadorlikka asoslanuvchi *metonimiya* (mumtoz poetikada *majoz*) va uning alohida yoki tutash shakli bo‘lmish *sinekdoxa* ko‘chimlari badiiy tasvir imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omillardir [7;13-b.].

Ko‘rinadiki, badiiy ko‘chimlarning umumiy nazariy va evolyutsion asoslari jahon hamda o‘zbek tilshunosligida atroflicha yoritilgan bo‘lsa ham, ularning muayyan ijodkor individual uslubidagi pragmatik va estetik imkoniyatlarini, xususan, Qo‘zi Davlat – Davlatyor nazmiy merosidagi semantik-funksional tabiatini maxsus tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bizning ushbu maqolamizdan ko‘zlangan maqsad shoir she’riyatida qo‘llangan mazmuniy ko‘chimlar – troplar tizimini, muallifning metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanish mahoratini hamda ularning matn poetik tahlilidagi estetik va konnotativ vazifalarini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Metodologiya. Ushbu maqolada Qo‘zi Davlatning 1999-yil Toshkentda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida chop qilingan “Ko‘ngil chiroyi” (shartli qisqartmada – KCh) to‘plamiga kiritilgan g‘azal va muxammaslari empirik material sifatida tanlab olingan. Maqolaning metodologik aso-